

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIKA SOHASINING RIVOJLANISH METODLARI

Ibragimova Ra'noxon Xadyatillaevna

O'zDJTU uz O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: ibragimovaranosa34@gmail.com

+998902000082

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogika sohasining zamonaviy rivojlanish metodlari yoritilgan. Unda an'anaviy va innovatsion o'qitish usullarini uyg'unlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik jarayonda motivatsiyani oshirish, baholash tizimini takomillashtirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ta'lim sifatiga ta'siri yoritib berilgan. Maqola ta'lim muassasalari pedagoglari va soha mutaxassisleri uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ta'lim samaradorligi, pedagogika, zamonaviy metodlar, interfaol ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, baholash tizimi, motivatsiya.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifa – barkamol, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu jarayonda ta'lim samaradorligini oshirish pedagogika sohasining rivojlanish metodlarini doimiy takomillashtirishni talab etadi. Pedagogika fanining zamonaviy yondashuvlari ta'lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklab qolmasdan, balki o'quvchining shaxsiy rivoji, ijtimoiy moslashuvi va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan biri – o'qitish metodlarining zamon talablariga mosligi hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usullari o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, ularni

interfaol va innovatsion metodlar bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifati va natijadorligini sezilarli darajada oshiradi. Muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, tadqiqotga asoslangan o'qitish, hamkorlikda o'rganish kabi metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Bu esa ta'lim jarayonini jonli, mazmunli va samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Pedagogika sohasida rivojlanish metodlarining yana bir muhim jihati – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvidir. Ushbu metod orqali o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, individual psixologik xususiyatlari inobatga olinadi. Natijada o'quvchi o'zini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida his qiladi, bu esa uning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Motivatsiyaning oshishi esa bevosita ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham pedagogika sohasining muhim rivojlanish yo'nalishlaridan biridir. Raqamli ta'lim platformalari, elektron darsliklar, masofaviy ta'lim imkoniyatlari va multimedia vositalari o'quvchilarning bilimni qabul qilish jarayonini yengillashtiradi hamda ularni mustaqil o'rganishga undaydi. Ayniqsa, vizual va amaliy materiallarning ko'pligi murakkab tushunchalarni tez va oson o'zlashtirishga yordam beradi.

Pedagogik jarayonda baholash tizimining takomillashuvi ham ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Faqat yakuniy natijani emas, balki o'quvchining rivojlanish dinamikasini baholash, formatif baholash usullaridan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi. Bunday yondashuv o'quvchini xatodan qo'rqmasdan o'rganishga, o'z ustida ishlashga va shaxsiy yutuqlarini anglashga undaydi.

Ta'lim samaradorligini oshirish pedagogika sohasining doimiy rivoji, zamonaviy metodlarning joriy etilishi va ta'lim jarayonida inson omiliga alohida e'tibor qaratilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va texnologik yondashuvlarga asoslangan pedagogik metodlar jamiyat ehtiyojlariga mos, bilimli va yetuk avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri

hisoblanadi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligini ta'kidlandi. Ana shu maqsadda o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini keng qo'llash zarurati mavjuddir. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turlituman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim beruvchilar mazmunli va sifatli ta'lim jarayonini tashkil qilishlarida axborot manbalaridan ya'ni Axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT) imkoniyatlaridan,

Axborot- resurs markazlari (ARM) elektron o'quv bazalaridan, mahaliy va xorijiy o'quv, uslubiy va ilmiy adabiyotlardan keng foydalana olishlari muhimdir. Ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishi, ularning kasbiy o'sishini rag'batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalash ko'p jihatdan ta'lim beruvchiga bog'liq bo'ladi.

«Metod» - yunoncha «metodos» - «yo'l» degan so'zdan paydo bo'lib, u tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta'lim metodlari – o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini bildiradi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining

qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metod o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim

oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi. “Davra suhbat” metodi:

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. [Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. 2004]

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqalima'lum bir yechimga kelinadigan metoddir.

“Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi.

MUHOKAMA

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish maqsadida turli xil zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish ko‘proq natija bermoqda. Zamonaviy ta’lim metodlari bolani darsga qiziqishini oshirib ta’lim olish darajasini yaxshilab beruvchi jarayon hisoblanadi. Ya’ni zamon bilan hamnafas zamonaviy metodlar hozirgi ta’lim jarayonining talabi ham bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy ta’lim metodlari asosan qiziqarli o‘yinlar, turli topshiriqlar, mantiqiy yondashishlar, teran fikrlarni shakllantirib beradi. Bu metodlardan foydalanish yangi marralarni egallashdek gapdir. Asosan yurtimiz an’anaviy ta’lim metodlaridan hozirgi kungacha foydalanib kelmoqda va bu metodlar dars jarayonini zerikarli o‘tishiga, bola diqqatini chalg‘ishiga, o‘quvchi darsda bemalol o‘z fikrini bildira olishi qiyinlashishiga olib keladi. Bu narsalar esa hammani dars davomida baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Xullas an’anaviy va zamonaviy ta’lim metodlarini dars davomida birdek qo‘llash darsni ham qiziqarli, ham mazmunli o‘tishiga yordam beradi.

NATIJA

Zamonaviy ta’lim metodi sifatida ko‘p qo‘llaniladigan O‘yin metodi dars jarayonini qiziq o‘tishini ta’minlovchi va bolalarga shu yil bilan ta’lim tarbiya beruvchi metod hisoblanadi. Asosan bu metodni boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga qo‘llash ularni darsga qiziqishini oshiradi. Natijada bolalar berilgan vazifani o‘z vaqtida bajarib kelishadi. Undan tashqari Aqliy hujum metodi, bu metod bolani erkin fikrlashiga va

muammoni aniq qilib yechishiga yordam beradi va bola dars davomida o'zining fikrlarini bemaolol bildiradi. Zamonaviy ta'lim metodlari bolani aqliy qobiliyatlarini oshirib beruvchi metodlar sirasiga kiradi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ushbu metodlar orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metodlar orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'yektiv baholashi mumkin. Bo'lajak pedagoglar hozirgi zamon talabiga mos tarzda bilim berish uchun zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ta'lim oluvchini ham, ta'lim beruvchini ham doim izlanishda bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. Qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy Nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
- 2.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
- 3.Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va Qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
- 4.B.X.Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ” Toshkent - 2017 9296-betlar.
- 5.Ziyo.net